

2021- yilning yanvar-oktabr oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, Farg'ona viloyatida jami **5 500,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **112,2 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'vicha shakllanadi.

Yirik qurilish
tashkilotlari


11,6

Kichik korxona
va mikrofirmalar

66,0

Norasmiy
sektor

22,4




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni **3 656** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **482** taga ko'paygan.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlarning soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **115,2** %ga (jami qurilishdagi ulushi **55,6** %), fuqarolik obyektlarini qurish **114,0** %ga (jami qurilishdagi ulushi **10,7** %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **115,4** %ga (jami qurilishdagi ulushi **33,7** %) o'sishidir.




Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.11.2020- yil	01.11.2021- yil	
	Farg'ona viloyati	3174	3656	115,2
	<i>shaharlar:</i>			
	Farg'ona	846	981	116,0
	Qo'qon	318	359	112,9
	Quvasoy	112	129	115,2
	Marg'ilon	316	352	111,4
	<i>tumanlar:</i>			
	Oltiariq	106	118	111,3
	Qo'shtepa	105	109	103,8
	Bag'dod	159	169	106,3
	Buvayda	129	141	109,3
	Beshariq	82	97	118,3
	Quva	136	153	112,5
	Uchko'prik	170	202	118,8

	Rishton	70	88	125,7
	So'x	42	73	173,8
	Toshloq	135	150	111,1
	O'zbekiston	83	96	115,7
	Farg'ona	95	121	127,4
	Dang'ara	122	140	114,8
	Furqat	71	82	115,5
	Yozyovon	77	96	124,7


Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, 01.11.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, %da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona (26,8 %), Qo'qon (9,8 %) va Marg'ilon (9,6 %) shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **635,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **153,9** %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **3,1** % punktga ko'payib, **11,6** %ni tashkil etdi.

**Yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




● ulushi %da ● o'sish sur'ati %da


Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahrida jami qurilish ishlari hajmining **35,2 %**i yoki 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **4,7 m.**, Yozyovon tumanida jami qurilish ishlari hajmining **23,1 %**i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **83,7 %.**, va Qo'qon shahrida esa jami qurilish ishlari hajmining **17,6 %**i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **102,5 %**ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **66,0 %**i to'g'ri kelib, 2020 - yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan **2,7 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020 - yilning mos davriga nisbatan **107,9 %**ni tashkil etgan holda **3 632,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **133,3** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5 367,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,4 %** va **97,6 %**ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **62,7 %** yoki **3 450,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **583,7** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **16,9 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 750,1** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **50,7 %**ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 116,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **32,4 %**ni tashkil etdi.






Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati*	5500,5	112,2	3450,5
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	1125,9	100,8	705,5
Qo'qon	428,8	116,1	250,2
Quvasoy	227,4	105,4	67,2
Marg'ilon	944,3	120,8	763,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	184,6	100,6	65,9
Qo'shtepa	194,8	102,3	132,5
Bag'dod	387,2	108,3	226,0
Buvayda	196,7	166,4	68,8
Beshariq	106,3	101,0	87,8
Quva	201,9	104,4	177,2
Uchko'prik	156,7	130,6	112,2
Rishton	110,5	129,5	49,6
So'x	129,1	103,8	62,7
Toshloq	234,6	120,4	130,0
O'zbekiston	140,1	132,1	118,0
Farg'ona	123,0	108,7	43,8
Dang'ara	281,0	107,4	143,4
Furqat	150,5	131,8	139,2
Yozyovon	177,1	118,7	107,0

* Viloyat bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari**



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **10,1 %**ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,4 %** punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,8 %** punktga ko'payib, **62,1 %**ni tashkil etdi.



Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,1 %** punktga kamayib, **27,8 %**ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **22,5 %**ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **10, 0 %** punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **76,9 %** (**10,7 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,6 %** (**0,7 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.





Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **14,0 %** punktga kamaydi va **11,9 %**ni tashkil etdi. Qolgan **88,1 %**i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **14,0 %** punktga ko'paydi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

mlrd. so'm

Farg'ona sh.
1 125,9

Marg'ilon sh.
944,3

Qo'qon sh.
428,8

Bag'dod t.
387,2



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Farg'ona sh. (1 125,9 mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (944,3 mlrd. so'm), Qo'qon sh. (428,8 mlrd. so'm), hamda Bag'dod t. (387,2 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi



Ijr : O'.Umarov
(73) 249-87-26
(73)-241-98-42